

SAIDA ZUNNUNOVA SHE'RIYATIDA SINTAKTIK TAKRORLAR

Bo'riyeva Gulbodom

TerDU O'zbek filologiyasi fakulteti 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada o'zbek xalqining suyukli farzandi, shoiri Saida Zunnunova ijodida qo'llanilgan sintaktik takrorlar lingvistik tahlilga tortildi. Takror uslubiy vosita sifatida badiiy asarda qahramonlarning ruhiy holatini, ichki kechinmalarini konketiroq ifoda etish uchun ishlatiladi. Takror hodisasi til stilistik resurslarini boyish, boyitish manbalaridan biridir. Takror poetik va publitistik asarlar tilida eng ko'p qo'llaniladigan sintaktik-stilistik figura hisoblanadi.

Kalit so'zlar: badiiy asar tili, lingvistika, badiiy san'atlar, stilistik figuralar, takrorlar.

СИНТАКСИЧЕСКИЕ ПОВТОРЫ В ПОЭЗИИ САИДЫ ЗУННУНОВОЙ

АННОТАЦИЯ

В статье лингвистически проанализированы синтаксические повторы, используемые в творчестве поэтессы Саиды Зуннуновой, любимого детища узбекского народа. Повтор как методический прием используется в художественном произведении для более конкретного выражения душевного состояния и внутренних переживаний героев. Феномен повтора является одним из источников обогащения стилистических ресурсов языка. Повтор — наиболее употребляемая синтаксико-стилистическая фигура в языке поэтических и публицистических произведений.

Ключевые слова: язык художественного произведения, языкознание, изобразительное искусство, стилистические фигуры, повторы.

SYNTACTIC REPETITIONS IN SAIDA ZUNNUNOVA'S POETRY

ABSTRACT

In the article, the syntactic repetitions used in the works of poetess Saida Zunnunova, beloved child of the Uzbek people, were analyzed linguistically. Repetition as a methodical tool is used in a work of art to more concretely express the mental state and inner experiences of the characters. The phenomenon of repetition is one of the sources of enriching the stylistic resources of the language. Repetition is the most used syntactic-stylistic figure in the language of poetic and journalistic works.

Key words: *language of artistic work, linguistics, fine arts, stylistic figures, repetitions.*

KIRISH

Adabiy asar tilining poetikligi, obrazlilik, tasviriyligi asar g'oyasini, qahramon ruhiyatini, xarakterini jozibali qilib ochishga xizmat qiladi. Bundan faqat maxsus badiiy tasvir vositalarini qo'llash orqali asar tilining obrazlilikiga, tasviriyligiga erishilar ekan, degan bir yoqlama xulosa chiqarish to'g'ri emas. Chunki adabiy asar tilida o'z o'rnida topib ishlatilgan oddiy so'z va iboralar ham xarakter va manzaralarni aniq ifodalay oladi, binobarin, bunday so'z va iboralar ham tasvir vositasi rolini bajaradi. Badiiy asar muvaffaqiyatini ta'minlashda sintatik-stilistik vositalar ham alohida ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Badiy adabiyotda ifodali nutq vositasi sifatida muhim ro'l o'ynaydigan, mazmunan stabillashgan nutq obrazlari sintaktik-stilistik figuralar deyiladi¹.

Sintaktik stilistik figuralar ifodali nutqning shunday vositalari sanaladiki, ular vositasida tuzilgan nutq shakli to'liq, bir butun sintaktik konstruksiyadan iborat bo'ladi. Bu esa ularning eng xarakterli umumiy belgisidir.

Sintaktik-stilistik figuralar badiiy adabiyotda ifodalilik hosil qiluvchi va ma'lum bir uslubiy vazifa bajaruvchi intonasion-sintaktik usullardandir. Sintaktik-stilistik figuralar nutqning emotsionalligini oshirishga yordam beradigan maxsus sintaktik oborotlardan iborat bo'lib, ularga parallelizm, takror va uning utrlari, antiteza, inversiya ellipsis, gradatsiya kabilar kiradi².

Sintaktik-stilistik figuralarni aniqlash stilistikaning eng muhim masalalaridan biridir. Bu masala dastlab adabiyotshunoslarning diqqatini tortgan. Sintaktik-stilistik figuralar ritorikaga oid adabiyotlarda poetik sintaksis elementi sifatida izohlanadi. Bu figuralarning boshqa nutq uslublarida ham ma'lum bir uslubiy vazifani bajarish imkoniyati ularning faqat poetik nutq sintaksisi uchungina emas, balki boshqa nutq uslublari uchun ham xarakterli ekanini ko'rsatadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Ma'lumki, matn mazmun jihatdan bog'langan, ma'lum bir predmet, voqea-hodisa, belgi haqidagi monologik nutq parchasidir. Shu o'rinda aytish lozimki, mazmun nuqtai nazardan yondoshilganda esa matn vaziyat va vaziyat elementlari orqali o'zaro bog'langan, bir-birini taqozo etuvchi bir necha propozitsiyaning sintaktik strukturasi orqali ifodalanishidir. Bunda matndagi keyingi gap o'zidan avvalgi

¹ Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. -T., 1995. 40-bet.

² Shomaqsudov A., Rasulov I. O'zbek tili stilistikasi. -T., 1983. 230-bet.

gapning mantiqiy davomi bo'lib, keyingi gapning mazmunini avvalgi gapning mazmunisiz tushunib bo'lmaydi. Matndagi gaplarning mazmuni, shakli va ohangi bir umumiy semantikani ifodalashga xizmat qilib, o'zidan avvalgi va keyingi matnga nisbatan nisbiy butunlikni hosil qiladi. Stilistik figuralar ritorikaga oid adabiyotlarda poetik sintaksis predmeti sifatida izohlanadi. Bu figuralarning boshqa nutq stillarida ham ma'lum bir stilistik vazifani bajarish imkoniyati o'zgalarning faqat poetik nutq sintaksisi uchungina emas, balki umumiy adabiy til sintaksisi uchun ham xarakterli ekaligini ko'rsatuvchi dalildir.

Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili sintaktik qurilishda stilistik figuralarning roli katta. Ayniqsa, qo'shma gap stilistikasi masalalarini hal qilganda bunda asosiy faktorlardan biri sifatida qaralishi lozim. Sintaktik-stilistik figuralar tilning ifodalari vositalari doirasiga kiradi. Bu vositalar dastavval poetik nutqga xos figuralar sifatida qaralgan bo'lsada, keyingi vaqtlarda nashr etilgan tilshunoslikka oid adabiyotlarda prozaik nutq hodisasi sifatida o'rganila boshladi. Stilistik figuralar nutqni ta'sirli va jozibali qilish bilan birga, fikrni tinglovchisiga teng va oson yetkazish imkoniyatini beradi. Ular yordamida hosil qilingan nutq shakllari jarangdorlikka moyil bo'ladi³.

Badiiy nutqda eng ko'p ishlatiladigan stilistik vositalardan biri takroridir. Qo'llanish darajasi jihatidan tekshirilganda shu narsa ma'lum bo'ladiki, takror prozaik janrlarda yaratilgan asarlar tilida poetik nutq stiliga qaraganda ancha kam bo'ladi. Tilda takrorlar ma'lum bir sistemani tashkil qiladi: fonetik takror, leksik takror, morfologik takror, sintaktik takror. Takror, asosan, badiiy nutqga xos sintaktik-stilistik ifoda usullaridan biridir. Takror badiiy adabiyotda keng tarqalgan, eng qadimiy stilistik ifoda bo'lib, so'z ustalari undan tasvir etayotgan obyektga bo'lgan sub'yektiv munosabatlarni ifodalash, unga baho berish, tinglovchi yoki o'quvchining diqqatini tortish maqsadida foydalanganlar.

Takrorning vazifasi muallif nutqini ta'sirchan etish, fikrni konkretlashtirish va eng muhimi, unga tinglovchi yoki o'quvchini ishonitirish kabi xususiyatlarni ifodalashdan iborat. Masalan:

*Qadamlar, sharpasiz og'ir qadamlar,
Ko'zlar pardasiga qalqqan achchiq yosh.
Eng so'nggi safarga kimni uzatar,
Hamkasbmi, qo'shnimi yoki qarindosh?
Gullar husni shuncha sovuqmi asli,
Visol damidagi ko'rki qayerda?
Bugun tabiatning qanaqa fasli,
Hech kim payqamaydi, ko'zlari yerda.*

³ Mamajonov A. Qo'shma gap stilistikasi. -T.: Fan, 1990. 12-bet.

*Mayliga, ranglar ham o'chsin bir nafas,
Mayliga, oftob ham berkinsin bir dam.
Mayliga, bir zum yo'qolsin havas,
Mayliga, zil yukday tuyulsin qadam,
Axir oramizda ketmoqda odam!*

Takror hodisasi til stilistik resurslarini boyish, boyitish manbalaridan biridir. Takror poetik va publitistik asarlar tilida eng ko'p qo'llaniladigan sintaktik-stilistik figura hisoblanadi. Eng maxsuldor va effektli takror tipi -- bu sintaktik takror usulidir. Sintaktik tushunchalar: so'z birikmalari, gap bo'laklari, gap turlarining aynan takrorlanishi natijasida sintaktik takror hodisasi yuzga chiqadi. Bunday usul yordamida struktural qurilishi jihatdan o'zaro parallel bo'lgan sintaktik konstruksiya hosil qilinadi.

Sintaktik takror ob'yektiv olamda mavjud bo'lgan voqea-hodisalar haqidagi figuralarning tugal va keng ifoda etishi uchun ham uning yordamida tugallanadigan sintaktik konstruksiyalarning biron bir komponentini tushurib qoldirish mumkin bo'lmaydi. Masalan:

*Bahormi, bahormi?- shivirlar yellar,
Bahormi, bahormi?- so'raydi ellar.*

*Bu nima, bu nima?- shivirlar yellar,
Bu nima bu nima?- so'raydi ellar. (S.Zunnunova. Bahor she'ri)*

Sintaktik takror hodisasining yuzaga chiqishi uchun ikki yoki undan ortiq bir tipdagi sintaktik konstruksiyalar parallel holatda qo'llanishi shart. Bunday konstruksiyalarni intonatsion xususiyatlari jihatdan ham bir xarakterga ega bo'ladi. Sintaktik takror semantik-stilistik kategoriya sifatida keng ma'nodagi hodisa bo'lib, u tor-yakka ma'nodagi takror hodisalarning quydagi turlarini o'z ichiga oladi.

1. Gap bo'laklari takrori - bo'lakli takror.
2. Soz birikmalari takrori - birikmali takror.
3. Gap takrori -- predikativ takror.

Bo'lakli takror-bunda qiyoslanayotgan sintaktik konstruksiyalarning tuzilishidagi bir xil gap bo'lagi aynan takrorlanadi. Masalan:

*Kuladi qardoshlar, do'stlar, o'rtoqlar,
Kuladi qarddon elatlar, ellar,
Bor bo'lsin, tinimsiz, o'ynoqi yellar,
Bor bo'lsin, mehnatning baxt-saodati. (S.Zunnunova. Bahor she'ri)*

Keltirilgan birinchi parchada gap bo'laklaridan to'ldiruvchi takror holda qo'llangan. (Bor bo'lsin) Mazkur bo'lakning takrorlanishi shoir qalbidagi quvonch va samimiylarning cheksizligini ifodalagan.

Davrlar, zamonlar, asrlar balki

Uning to'ldirishida yig'laydi so'zsiz.

Uning to'ldirishida chayqalar izziz

Go'zallar, go'daklar, qasrlar balki. (S.Zunnunova. Dengiz bo'yida)

Keltirilgan ikkinchi parchada gap bo'laklaridan ega takrorlanib qo'llangan. Mazkur takrorlar (davrlar, zamonlar, asrlar) nutqning ta'sirchanligini yanada oshirgan. Mazkur misollarda qo'llangan gap bo'laklarining takrori lirik qahramonning ayni vaziyatdagi ruhiy kechinmalarini aniq ifodalashga xizmat qilgan. So'z birikmasi takrori-birikmali takror qiyoslanayotgan konstruksiyalar tarkibida bir xil so'z birikmasining takrorlanishi natijasida yuzaga keladi. Masalan:

Maysa nish uribdi ariq bo'yida,

Birinchi sevgidek biram beg'ubor.

Quyoshga talpingan qiyoslarida

Birinchi sevgining soddaligi bor.

Bu yerda birikmali takrorning matn mazmuniga, ifodaviyligiga ko'rsatgan ta'sirini ko'rishimiz mumkin. Misrallarda takrorlangan so'z birikmasi (birinchi sevgi) takrori lirik qahramonning-o'z yoridan bevaqt ayrilgan ayolning (shoiraning o'z hayoti) ichki kechinmalari, iztiroblari aks etgan.

Predikativ takror, yani gap takrori gap qurilishidagi bir butun predikativ birliklarning takrorlanib qo'llanishidir. Masalan:

Gullar yuzida xanda - bu bog'dan yor o'tdimi,

Odatin qilmay kanda, yana bedor o'tdimi?

Yellar nechun sarsari, ketolmaydilar nari,

Ko'nglimning moh paykari ko'zi xummor o'tdimi?

Keltirilgan parchada sodda gap takrorlanib kelgan. Mazkur gap mazmunan iltijo, yalinish ma'nosini ifodalashga xizmat qilgan. Bu yerda gapning takrorlangani uning mazmunidagi iltijo, o'tinch ma'nolarini kuchaytirishga yordam bergan. Mazkur gapning ritorik so'roq shaklida ekanligi emotsionallikni yanada oshirgan.

Takror uslubiy vosita sifatida badiiy asarda qahramonlarning ruhiy holatini, ichki kechinmalarini konkretroq ifoda etish uchun ishlatiladi. Buni Said Zunnunovanning quyidagi misrallari ham kuzatishimiz mumkin:

Tarixni so'zlama menga, ey odam,

Bitta chalib bergin «Cho'li iroq»ni.

Bitta chalib bergin, toki yana ham

Yaxshiroq ajratay qorani, oqni.

Keltirilgan parchada ikkita misraning boshida *Bitta chalib bergin* misrasi takrorlangan. Soʻzningning ikki oʻrinda, ayniqsa, gapning boshida takrorlanishi sheʼrning taʼsirchanligini oshirishga yordam bergan. Quyida keltirilgan gap takrorida drammatizm yanada kuchliroq ekanini koʻramiz:

Xoh bilgil, xoh bilmagil,

Hammasiga men boʻlay rozi.

Axir nima qilay, axir ne qilay,

Ishq uchun yoʻq ekan toshu tarozi.

Maʼlumki, shoira Saida Zunnunova ijodida hijron motivlari asosiy oʻrinni egallaydi. Yuqorida keltirilgan parchada *Axir nima qilay, axir ne qilay* kesimining takror holda kelishi shoira qalbidagi hislarni teranroq tushunishga yordam beradi. Undagi sogʻinch, oʻtgan aziz damlarni qoʻmsash holati gap boʻlagini takroran qoʻllash orqali taʼsir kuchini oshirgan.

Sheʼr oʻqigim kellar,

Notinchlikka chanqoq,

Qanotli oʻylarga tashna yuragim.

Sergak etsa ohanglar, kuylar,

Oʻtkazdirib tunlarni uygʻoq,

Tashna labga oʻxshar yuragim.

Sheʼr oʻqigim kellar...

Keltirilgan parchada ham kesimlar takrorlangan. Kesim gapning asosiy boʻlagi boʻlgani uchun, shuningdek, gap mundarijasining kesim vositasida yuzaga chiqishi sababli gap boʻlaklaridan kesimning takrori koʻplab uchraydi. Oʻz yoridan bevaqt judo boʻlgan shoira butun hayoti davomida yor soʻgʻinchidan ozorlanib yashadi, har bir narsada oʻz yorini koʻrdi, har daqiqa ni izladi. Oʻz hissiyotlari bilan kurashib yashadi. Mana shu kechinmalar takror vositasida kitobxon qalbiga etib borgan.

XULOSA

Koʻrinadiki, takror kuchli uslubiy vosita boʻlib, u ijodkorning mahoratiga bogʻliq holda asar mohiyatini yuzaga chiqarishga yordam beradi. Saida Zunnunova mohir soʻz sanʼatkori sifatida oʻz sheʼrlarida takrorning turli koʻrinishlaridan unumli foydalangan. Ularda ishlatilgan takrorlar holatni, qahramon ruhiyatini oʻquvchi koʻz oʻngida yaqqol namoyon etishga yordam bergan, taʼsirchanlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Мамажонов А., Махмудов У. Услуги воситалар. – Фарғона, 1996.

2. Умуркулов Б.Поэтик нутқ лексикаси.—Тошкент, «Фан», 1990.
3. Шамсиддинов Ҳ. Қўнғуров Р, Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент, «Ўқитувчи», 1983, 246 б.
4. QIZI X. S. S., Bekro'lat U. TIL MADANIYATI VA NUTQ ODOBI //IQRO JURNALI. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 305-310.
5. Botirova M., Qayumova M. Language Characteristics of Phraseological Units //Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 80-83.
6. Botyrova M., Bozorova G. THE USE OF METAPHOR IN FICTION //Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры. – 2023. – Т. 3. – №. 1 Part 2. – С. 82-89.
7. Makhliyo B. et al. Linguistic Features of Artistic Similes //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 41-46.
8. Makhliyo B. et al. Linguistic Features of Artistic Similes //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 41-46.
9. Qizi B. M. B., Sanjarovich I. S. BADIY MATNNING LINGVISTIK MOHIYATI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 3. – С. 46-51.
10. Baxodirovna B. M. Advertising Discourse as a Research Object of Linguistics //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2023. – Т. 4. – №. 4. – С. 233-237.